



**INNOVATIVE WORLD**  
Ilmiy tadqiqotlar markazi



**TADQIQOTLAR**



**ILM-FAN**



**TEKNOLOGIYALAR**

# ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

**2026**



Google Scholar



zenodo

OpenAIRE

Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR  
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,  
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 5-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro  
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar

doi® digital object  
identifier

ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX

OpenAIRE

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib



Directory of Research Journals Indexing

[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)

O'ZBEKISTON-2026

**QO'QON ZIYORATGOHLARI: ETNOGRAFIK MEROS VA  
ZAMONAVIY XUROFOTLAR TAHLILI (DAXMAYI SHOHON VA  
CHALPAK MADRASASI MISOLIDA)**

**Ne'matov Muhammadaziz No'mon o'g'li**

Qo'qon davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Qo'qon shahridagi tarixiy ziyoratgohlar - Daxmayi Shohon va Chalpak madrasasining etnografik ahamiyati tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida tarixiy haqiqatlar va bugungi kunda ushbu maskanlarda saqlanib qolgan "qoqimchilik", "dam solish" kabi xalqona ishonchlar o'rtasidagi tafovutlar tahlil qilingan. Dala tadqiqotlari va intervyular asosida ziyoratgohlarning muqaddaslashtirilishi va ularning ijtimoiy-psixologik funksiyalari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Qo'qon xonligi, Daxmayi Shohon, Chalpak madrasasi, Nodirabegim, etnografiya, irim-sirimlar, qoqimchilik, xalq tabobati, ziyoratgoh.

**Аннотация.** В данной статье исследуется этнографическое значение исторических святынь Коканда — Дахмайи Шохон и медресе Чалпак. В ходе исследования анализируются различия между историческими фактами и сохранившимися по сей день народными поверьями, такими как «кокимчилик» и обряды очищения. На основе полевых исследований и интервью освещаются процессы сакрализации святынь и их социально-психологические функции.

**Ключевые слова:** Кокандское ханство, Дахмайи Шохон, медресе Чалпак, Нодирабегим, этнография, суеверия, кокимчилик, народная медицина, святыни.

**Annotation.** This article explores the ethnographic significance of the historical shrines of Kokand — Dahmayi Shohon and Chalpak Madrasah. The research analyzes the differences between historical truths and the folk beliefs preserved today, such as "qoqimchilik" and healing rituals. Based on field studies and interviews, the processes of sacralization of shrines and their socio-psychological functions are highlighted.

**Keywords:** Kokand Khanate, Dahmayi Shohon, Chalpak Madrasah, Nodirabegim, ethnography, superstitions, qoqimchilik, folk medicine, pilgrimage sites.

**KIRISH.** XXI asrda texnologik taraqqiyot va ilm-fan yutuqlari insoniyat tafakkurini yangi bosqichga olib chiqqan bo'lsa-da, ijtimoiy ongda an'anaviy ishonchlar, irimlar va xalqona mifologiyaning saqlanib qolishi hamon dolzarb etnografik muammo bo'lib qolmoqda. O'zbekistonning qadimiy shaharlaridan biri bo'lgan Qo'qon o'zining boy tarixi va diniy-ma'rifiy maskanlari bilan ajralib turadi. Biroq, ushbu maskanlar atrofida shakllangan zamonaviy marosimlar va mahalliy davolash usullari ko'pincha tarixiy haqiqatdan uzoqlashib, xurofotlar bilan qorishib ketmoqda. Ushbu jarayonni ilmiy nuqtayi nazardan o'rganish,

tarixiy xotirani asl holicha asrash va jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik o'zgarishlarni tahlil qilish tadqiqotning asosiy zaruratini belgilaydi.

Tadqiqot obyekti sifatida Qo'qon shahridagi ikki yirik majmua — Qo'qon xonlarining oilaviy xazirasi [1] hisoblangan Dahmayi Shohon hamda ma'rifatparvar shoira Nodirabegim tomonidan barpo etilgan Chalpak madrasasi tanlandi. Tadqiqot predmeti esa ushbu maskanlarda faoliyat yurituvchi "qoqimchi" ayollar, "dam soluvchi" domlalar, shuningdek, tarixiy an'analarning bugungi kundagi transformatsiyasidir.

Mazkur ishning asosiy maqsadi — tarixiy obyektlarning muqaddaslashtirilishi jarayonida paydo bo'lgan zamonaviy urf-odatlarining ijtimoiy-etnografik ildizlarini ochib berishdir. Shu maqsadda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. Dahmayi Shohon va Chalpak madrasasining asl tarixiy va ma'rifiy vazifasini yoritish;
2. Dala tadqiqotlari (intervyular) orqali ziyoratgohlardagi "qoqimchilik" va "dam solish" faoliyatining bugungi holatini o'rganish;
3. Nodirabegim asos solgan ehson an'anasining bugungi kundagi "ritulalashgan" talqinlarini tahlil qilish;
4. Ijtimoiy ongda xurofotlarning saqlanib qolish sabablarini etnografik va akademik nuqtayi nazardan baholash.

Maqolani tayyorlashda etnologik tadqiqot usullaridan biri bo'lgan "dala tadqiqoti" metodidan foydalanildi. Bevosita ziyoratgohlar hududida o'tkazilgan intervyular, kuzatuvlar va tarixiy manbalar bilan qiyosiy tahlil qilish orqali xulosalar shakllantirildi.

**Dahmayi Shohon majmuasi.** Qo'qon xonlarining oilaviy xazirasi hisoblanadi. Ushbu majmua XIX asr boshlarida Amir Umarxon tashabbusi bilan bunyod etilgan. Majmua me'moriy jihatdan peshtoq, ikki ustrundi ayvonli masjid va oilaviy qabristondan iborat bo'lib, xonlik hokimiyati hamda sulolaviy mangu xotiraning ramzi sanalgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, majmua tarkibida maxsus "qorixona" faoliyat yuritgan, u yerda yoshlarga, xususan, ko'zi ojiz bolalarga Qur'on ilmi va mumtoz san'at darslari o'tilgan. Umarxonning o'z xalqi oldidagi kamtarligi ramzi sifatida daxma ostonasiga dafn etilishi ushbu maskanning yuksak diniy-ma'naviy maqomini belgilagan.

**Chalpak madrasasi.** XIX asrda ma'rifatparvar shoira Nodirabegim (Mohlaroyim) tomonidan barpo etilgan muassasadir. Ushbu dargoh 29 ta hujra va darsxonalardan tashkil topgan. Madrasaning "Chalpak" deb nomlanishi bevosita Nodirabegim tomonidan asos solingan ijtimoiy xayriya an'anasi bilan bog'liq. Bu yerda muntazam ravishda chalpak pishirilib, kambag'al va muhtojlarga ulashilgan, natijada madrasa nafaqat ta'lim maskani, balki muhtojlar uchun ijtimoiy yordam markazi vazifasini ham o'tagan.

**Dala tadqiqoti natijalari:** Etnografik kuzatuv va intervyular tahlili, dala tadqiqotlari davomida ushbu tarixiy maskanlar atrofida shakllangan zamonaviy "shifo berish" va "duo olish" amaliyotlari o'rganildi:

**Qoqimchilik va merosiy an'analar:** Intervyu qilingan qoqimchi ayolning ta'kidlashicha, ushbu faoliyat onasidan meros bo'lib qolgan "ustoz-shogird" an'anasiga tayanadi. U qoqish jarayonini mijozlarning ruhan va jismonan yengillashi, "ko'zi ochilishi" bilan izohlaydi. Diqqatga sazovor joyi shundaki, hatto jarrohlik amaliyotiga muhtoj bo'lgan zamonaviy bemorlar ham ushbu "tabiiy davo"ga ishonib, ziyoratgohga murojaat qilmoqdalar.

**"Nafasi o'tkir" domlalar va suv xotirasi:** Majmua atrofida faoliyat yurituvchi domlalar o'z ishini xonlar davridan qolgan "40 qori" an'anasining davomi deb bilishadi. Ularning qarashlariga ko'ra, Qur'on oyatlari dam solingan suvda "yozilib qoladi" va u inson organizmi uchun "tabiiy filtr" vazifasini o'taydi. Bu jarayon mahalliy aholi ongida ziyoratgohning "jannatmakon" tabiati va muqaddasligi bilan chambarchas bog'langan.

**An'analarning transformatsiyasi:** Nodirabegim davridagi ijtimoiy yordam (chalpak ulashish) bugungi kunda shaxsiy muammolarni hal qilish yoki "baxt ochish" niyatida bajariladigan ritual darajasiga tushib qolgan. Intervyular shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda ziyoratchilar o'z ehtiyojlariga qarab 9 yoki 11 ta chalpak olib kelib, "duo olish" uchun tarqatmoqdalar.

**Tarixiy haqiqat va zamonaviy talqinlar to'qnashuvi:** Tahlillar shuni ko'rsatadiki, asriy an'analarga asoslangan ziyorat odoblari bilan keyinchalik paydo bo'lgan moddiy "xizmatlar" o'rtasida jiddiy tafovut mavjud. Nodirabegim asos solgan ehson an'anasi aslida yuksak ijtimoiy mas'uliyat ramzi bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda bu jarayon ko'proq g'ayritabiiy kuchdan madad kutish shakliga kelib qolgan. Bu o'zgarishlarning asosiy sababi sifatida vaqf tizimining yo'qolishi, madrasalarning ta'lim funksiyasini yo'qotishi va aholi orasida tarixiy bilimning yetishmasligini ko'rsatish mumkin.

**XULOSA.** O'tkazilgan tadqiqot va dala kuzatuvlari shuni ko'rsatadiki, Qo'qon ziyoratgohlari — Dahmayi Shohon va Chalpak madrasasi — bugungi kunda ham aholining ijtimoiy-ma'naviy hayotida muhim o'rin tutadigan "tirik xotira maskanlari" bo'lib qolmoqda. Biroq, ushbu maskanlar atrofida shakllangan zamonaviy etnografik manzara tarixiy haqiqat va xalqona ishonchlar o'rtasidagi jiddiy transformatsiyani ko'rsatadi.

**Tadqiqot natijasida quyidagi akademik xulosalarga kelindi:**

**1. Tarixiy funksiyaning o'zgarishi:** Nodirabegim asos solgan "Chalpak madrasasi" ehson an'anasi o'zining asl ijtimoiy-ma'rifiy mohiyatini (muhtojlarga yordam berish) yo'qotib, shaxsiy muammolarni hal qilishga qaratilgan ritualistik "irim" shakliga kelib qolgan. Bu jarayon vaqf tizimining barham topishi va diniy-ma'rifiy bilimlar uzulishi natijasidir.

**2. Psixologik tasalli va xalq tabobati:** "Qoqimchilik" va "dam solish" amaliyotlari aholi uchun zamonaviy tibbiyot bilan raqobatlashuvchi ruhiy va jismoniy yengillik manbasi bo'lib xizmat qilmoqda. Bu holat ilmiy nuqtayi nazardan ko'proq "platsebo effekti" [2] va joyning muqaddasligiga bo'lgan kuchli ishonch (faith healing) bilan izohlanadi.

**3. Etnografik davomiylik:** Ushbu amaliyotlar — qorilarning Qur'on tilovati yoki qoqimchilik hunari — asrlar davomida "ustoz-shogird" an'anasi va xonlar davridagi tartiblar (masalan, 40 nafar qori an'anasi) asosida hozirgi kungacha saqlanib kelgan.

Tarixiy obidalarni asrashda ularni nafaqat me'moriy yodgorlik, balki asl ma'rifiy mohiyatini tiklash orqali himoya qilish zarur. Ziyoratchilar orasida tarixiy bilimlarni oshirish — madaniy merosning xurofotlar ostida qolib ketmasligining yagona yo'lidir.

Xulosa qilib aytganda, Qo'qon ziyoratgohlaridagi bugungi holat o'zbek xalqining o'z o'tmishiga bo'lgan hurmati va shu bilan birga, ruhiy madadga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojining o'ziga xos etnografik ko'rinishidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Chalpак madrasasi // Vikipediya, ochiq ensiklopediya.
2. Dahmai Shohon – the Tomb of the Kings in Kokand! [Video]. – YouTube.
3. Dahmai shohon: so'ngi manzil va ezgulik maskani haqida [Video] // Farg'ona MTRK. – YouTube.
4. **Temirova, S.** NODIRABEGIM QURDIRGAN MADRASALAR: MEMORIY MEROS VA MA'NAVIY BOYLIK // INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS, 2(8), 93–95-betlar, 2025. Zenodo. DOI: 10.5281/zenodo.17217339.
5. **Алимов И.** Кўқон хонлиги мадраса ва мактаблари тарихи: монография / Масъул муҳаррир: Ш. Воҳидов. – Тошкент: «Фан», 2017.
6. **Нуридинов Т., Низомов А., Расулов О.** Кўқон шаҳрининг тарихий-маданий ёдгорликлари. – Тошкент: «Фан», 2015.